



SOVET HOKIMIYATI DAVRIDA O'ZBEKISTON JANUBIY HUDUDLARIDA SUD TIZIMINING HUDUDIY XUSUSIYATLARI

Xudoykulov Ixtiyor Baxtiyorovich

QarDU tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola Sovet hokimiyati davrida O'zbekiston janubiy hududlarida sud tizimining hududiy xususiyatlarini tahlil qiladi. Tadqiqot 1924–1927 yillarda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi okrug va xalq sudlari faoliyati, sud kadrlarini tayyorlash, ma'muriy-hududiy tuzilishning o'zgarishi va sud organlarining ish yuritish tizimi bilan bog'liq muammolarni o'rganadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, urushdan oldingi va keyingi yillardagi sud tizimining markazlashtirilishi, kadr yetishmovchiligi va huquqiy islohotlar sud organlarining samarali ishlashiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Kalit so'zlar: sud tizimi, hududiy xususiyatlar, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sovet hokimiyati, okrug sudlari, xalq sudyalari, sud kadrlarini tayyorlash, ma'muriy-hududiy tuzilma, huquqiy islohotlar.

Аннотация: Статья посвящена анализу территориальных особенностей судебной системы в южных регионах Узбекистана в период советской власти. Исследование рассматривает деятельность окружных и народных судов Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей в 1924–1927 годах, с акцентом на кадровое обеспечение, изменения административно-территориальной структуры и проблемы ведения дел. Результаты показывают, что централизация системы судов, нехватка кадров и правовые реформы существенно влияли на эффективное функционирование судебных органов.

Ключевые слова: судебная система, территориальные особенности, Кашкадарьинская область, Сурхандарьинская область,



советская власть, окружные суды, народные судьи, подготовка кадров, административно-территориальная структура, правовые реформы.

Abstract: This article analyzes the territorial features of the judicial system in the southern regions of Uzbekistan during the Soviet government period. The study examines the activities of district and people's courts in Kashkadarya and Surkhandarya between 1924 and 1927, focusing on judicial staffing, changes in administrative-territorial structures, and case management challenges. The results indicate that centralization of the judicial system, staff shortages, and legal reforms significantly influenced the effective functioning of the courts.

Keywords: judicial system, territorial features, Kashkadarya, Surkhandarya, Soviet government, district courts, people's judges, judicial staffing, administrative-territorial structure, legal reforms.

Kirish. O'zbekiston hududida 1924-yilga kadar sovetlar tuzumining sudlov tizimi shakllantirilgan, ya'ni inqilobiy tribunallar va Xalq sudlari tashkil etilgan edi[1]. 1924-yil 8-oktabr kuni BXSAR Adliya Naziriatining 90-sonli buyrug'iga muvofiq barcha viloyatlarda okrug sudlari tashkil etilgan va Qashqadaryoda ham okrug sudi shu buyruq asosida tashkil qilingan edi[2]. 1924-yil 25-oktabrda Qashqadaryo viloyatida 25 kishidan iborat sud tashkil qilingan va 1 noyabrdan ish boshlagan[3]. Ularning jami ish haqi 10 000 so'm etib belgilangan bo'lsa-da, noma'lum sabablarga kura, 4133 so'm 73 tiyin berilgan. Bundan tashqari, sud organi qoshida huquqni himoya qiluvchi kollegiya va notarius bo'limi tashkil qilinishi lozim bo'lsa-da kadrlar yukligi sababli uni tashkil qilish imkoni bo'lmadi[4].

Qashqadaryo okrug sudi tarkibida viloyat sudi raisi (familiyasi ko'rsatilmagan, ehtimol tayinlanmagan bo'lishi mumkin), uning o'rinbosari Abdul G'ofurov, kollegiya a'zolari Sladkevich va Xoji Said Murodov, prokuror Izmailov hamda uning yordamchilari Mulla Yusuf Xusainov va Klevakin



ishlagan[5]. Tergovchilar sifatida Nepeklov, Sagitov Abduraxmon va Mulla Axmad Rajabov xizmat qilgan bo'lsa, sekretar vazifasini Jil Murod, Adina Murod va Muhammad Murod Nur bajargan. Bu tuzilma okrug sudlarining faoliyatini yo'lga qo'yish, mahalliy darajada sud-tergov tizimini shakllantirishda muhim qadam bo'lgan[6].

Asosiy qism. Qashqadaryoda birinchi viloyat sudi raisi sifatida Bogdan Nosirov xizmat qilgan. U 1920-yillar boshlarida ChK va GPU organlarida ishlab, katta tajriba orttirgan va o'zbek, rus, tojik, qirg'iz hamda arab tillarini yaxshi bilgan. Uning shaxsiy ishi ma'lumotlariga kura, 1925-yil 7-mayda 43-sonli buyruq chiqarib, O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetiga chaqirilgani munosabati bilan komandirovkaga ketayotganini va o'z o'rniga viloyat sudi raisi vazifasini bajaruvchi sifatida Abdul G'ofurovni qoldirishini ma'lum qilgan[7].

Qashqadaryo viloyatida sud-huquq tizimining o'sha yillardagi ahvoli juda og'ir edi. Bu tabiiy, chunki birinchidan kadrlar yetishmasligi bo'lsa, ikkinchidan qonunchilik ayniqsa jinoyat-protsessual qonunchiligining endi vujudga kelayotganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, 1924-yilda Qashqadaryoda 5 ta xududda ya'ni, Behbudiy, Koson, Chiroqchi, G'uzor va Shahrisabz rayonlarida xalq sudlari va xalq maslahatchilari tashkil qilingan. Prokuratura organi bo'lmaganligi viloyat sudi qoshida davlat ayblovini amalga oshiruvchi dastlab Izmaylov degan kishi, keyinroq V.Klevakin ismli prokuror bo'lgan, xolos[8].

1925-yilda Qashqadaryoda sud tizimi tarkibida viloyat sudi, 4 ta xalq sudi, 4 ta tergov uchastkasi hamda bitta notarial kontora faoliyat yuritgan. Surxondaryoda esa 1 ta xalq sudlari mavjud bo'lgan[9]. 1926 yilga kelib xalq sudlari soni bir oz oshdi. Jumladan, 1926-yil 1-avgust holatida Qashqadaryoda 7 ta, Surxondaryoda 6 ta va butun respublika bo'yicha jami 108 ta xalq sudlari faoliyat yuritgan[10].



1925-yildan O'zbekistonda yagona ma'muriy-hududiy bo'linish joriy qilinishi respublikadagi barcha davlat idoralari qatori sud tizimida ham muhim o'zgarishlarga olib keldi. Shu jumladan, Surxondaryo hududida ham ma'muriy-hududiy tuzilishning yangilanishi sud organlarining tashkil etilishi va ularning ishlash tartibiga ta'sir ko'rsatdi[11]. 1925-yilda Surxondaryo viloyati tuzilganida, unda xalq sudlari va viloyat sudi kabi idoralar tashkil etildi. Bu sudlar asosan jinoiy, fuqarolik va ma'muriy ishlarni kurib chiqar, mahalliy aholi o'rtasida qonun ustuvorligini ta'minlar edi.

1926-yilda viloyatlar o'rnida okruglar tashkil etilishi natijasida Surxondaryo viloyatning o'rniga Surxondaryo okrugi tashkil qilindi. Bu o'zgarish sud tizimidagi hududiy yurisdiksiyani ham qayta belgilashga sababchi bo'ldi. Sudlar endi okrug tamoyili asosida qayta tuzildi, ya'ni okrug sudi tuzilib, unga tegishli tuman xalq sudlari bo'ysindirildi. Bu sudlarning faoliyati markazlashtirilgan tarzda nazorat qilinar va ularning qarorlari ustidan okrug sudiga shikoyat qilish imkoniyati yaratilardi. 1927-yil 23-iyulda Surxondaryo okrugi ma'muriy markazining Sheroboddan Termizga ko'chirilishi sud tizimi uchun ham amaliyotda katta ahamiyat kasb etdi. Chunki sud idoralari, xususan, okrug sudi, prokuratura va ichki ishlar organlarining markaziy boshqaruvi ham Termizga ko'chirildi. Bu o'zgarish sud ishlarining samaradorligi, transport va aloqa qulayligi nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega bo'ldi[12].

Natija va muhokamalar. Surxondaryo viloyat sudi sobiq Ittifoq davrida Narimonov nomli ko'chada eski kurimsiz binoda joylashgan edi. Bino "Inkilob"dan ilgari qurilgan bo'lib, binoning peshtaxtasida "1903 god" deb yozib qo'yilgan edi. 1960-1970 yillarda yashagan keksa avlod kishilarning aytishlaricha, bino rus millatiga mansub bo'lgan paxtachi boyning uyi va xujalik xonalari (otxona va boshqalar) bo'lgan ekan[13]. Mazkur sud binosida sudyalari va sud xodimlarining ishlashlari uchun yetarli sharoitlar bo'lmagan.



Bir nechta sudyalari 1 ta xonada ishlar edi. Binoda bor yo'g'i 5-6 ta xona hamda 1 ta moslashtirilgan sud majlisi zali mavjud bo'lgan[14].

Shu tariqa, 1925-1927 yillarda Surxondaryoda ma'muriy-hududiy islohotlar sud tizimining tashkiliy tuzilishiga, yurisdiksiya doirasiga va ishlarni kurish jarayonining markazlashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda sud ishlari yuritishda sovet huquqiy tizimi tamoyillari, ya'ni sotsialistik qonunchilik asoslari kuchayib bordi.

O'sha davr mafkurasidan kelib chiqib, 1927-yilgacha sud organlari tarkibiga sinfiy jihatdan begona elementlar kirib qolganligi, ular jazo siyosatini amalga oshirish jarayoniga turli jihatdan to'siqlar yaratganligi, ayrim holatlarda shariat qonunlaridan, qozilik tizimidan va shu kabi an'anaviy huquqiy vositalardan foydalanilgani qayd etiladi. Bu esa sud-huquq sohasida sinfiy siyosatda og'ishlarga sabab bo'lganligi, shuning uchun partiya va sovet organlari yosh kadrlarni tayyorlash hamda sotsialistik ideologiyaga zid bo'lgan begona elementlardan sud tizimini tozalash vazifasini dolzarb deb hisoblaydi[15]

Buning natijasida O'zbekiston Sovet sotsialistik Respublikasi markaziy ijroiya qo'mitasining 1928 yil 18 fevraldagi Qaroriga kura, qozilik sudlari tugatilib, ularning o'rniga okrug sudlari tashkil etilgan hamda ish yurituvdagi barcha ishlar okrug sudlariga olib berilgan[16].

Xulosa. Xullas, O'zbekiston janubiy viloyatlarida, jumladan, Qashqadaryo va Surxondaryoda sovet sud tizimini tashkil etish jarayoni tarixiy-huquqiy nuqtai nazardan o'ta murakkab va ziddiyatli kechgani ma'lum bo'ldi. Yangi sovet hokimiyati ma'muriy-hududiy chegaralarni belgilash bilan birga, sud-huquq tizimini markazlashtirishga va shariat qozilik sudlarini tugatib, ularning o'rniga xalq sudlarini tashkil etishga intildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:



1. История советской прокуратуры в важнейших документах (К 30-летию советской прокуратуры (1922–1951) / Под ред. К.А. Мокичева. – Москва: Госюриздат, 1952. – С. 584.
2. Ишанов А. Создание Бухарской Народной Советской Республики (1920–1924 гг.) – Ташкент: Издательство Академии наук Узбекской ССР, 1955. – С. 82.
4. Qonun – adolat ko‘zgusi. Qashqadaryo viloyati prokuraturasi: kecha va bugun. – Toshkent: “Tamaddun”, 2022. – B.30.
5. QVDA, 1-fond, 1-ro‘yxat, 74-ish, 16-varaq.
6. O‘z MA, 64-fond, 4-ro‘yxat, 2-ish, 1-varaq.
7. Hoshimov S. Sovet hokimiyatining O‘zbekistondagi qatag‘on siyosati va uning oqibatlari (1917–1936 yillar). – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 128–129.
8. Qonun – adolat ko‘zgusi. Qashqadaryo viloyati prokuraturasi: kecha va bugun. – Toshkent: “Tamaddun”, 2022. – B. 95.
9. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi (QVDA), 1-fond, 1-ro‘yxat, 74-ish, 9 – 10-varaqlar.
10. Уразаев А. Судебные органы УзССР // Вестник юстиции Узбекистана.–Ташкент, 1925. –№ 2-3. – С.61.
11. O‘zMA, R-904-fond, 9-ro‘yxat, 104-ish, 29 varaq.
12. Tursunov S., Qobulov E., Murtazoyev B., Pardayev T., Umarov I. Termiz shahri tarixi. – T.: – «Yangi nashr», 2019. – B. 242. 288 b.
13. Surxondaryo viloyat davlat arxivi (CVDA), 122-fond, 1-ro‘yxat, 317-ish, 17-varaq.
14. SVDA, 122-fond, 1-ro‘yxat, 317-ish, 19-varaq.
15. Surxondaryo viloyat sudi muzeyi ma’lumoti asosida muallif tomonidan talqin etilmoqda.
16. SVDA, 122-fond, 1-ro‘yxat, 317-ish, 17-varaq.



17. История законодательства СССР и РСФСР по уголовному процессу и организации суда и прокуратуры 1917–1954 гг. Сборник документов. – Москва: Госюриздат, 1955. – С. 636.